



HISTORICAL AND GEOGRAPHICAL ANALYSIS OF THE KOHITANG OASIS BASED ON BRONZE AGE MONUMENTS

Ulugbek Kholtojiyevich Shapulatov

Researcher at Termez State University

Termez, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Kohitang oasis, Sopolli culture, Bronze Age, archaeological monuments, micro-oasis, ancient agriculture, Amu Darya, stratigraphy, migration, Southern Uzbekistan.

Received: 10.07.25

Accepted: 11.07.25

Published: 12.07.25

Abstract: This article analyzes the results of archaeological research conducted in the Kohitang agricultural oasis of southern Uzbekistan. During the investigations, 59 monuments related to the Sopolli culture of the 2nd millennium BCE were identified and grouped according to their natural-geographic locations into micro-oases – Maydon, Zarabag, Qarabag, Pashkhurt, Ghodz, Chorbog, and Kampurtepa. The spatial distribution of monuments, the morphology of ceramic artifacts, and stratigraphic layers in each micro-oasis were studied. Preliminary scientific conclusions were made regarding ancient agricultural infrastructures, socio-economic systems, and cultural interactions. This article serves as a significant source for the comprehensive analysis of settlement patterns, migration, and economic activity of Bronze Age communities.

BRONZA DAVRI YODGORLIKLARI ASOSIDA KO'HITANG VOHASINING TARIXIY-GEOGRAFIK TAHLILI

Ulug'bek Xoltojiyevich Shapulatov

Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi

Termiz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ko'hitang vohasi, Sopolli madaniyati, bronza davri, arxeologik yodgorliklar, mikrooazis, qadimgi dehqonchilik, Amudaryo, stratigrafiya,

Annotatsiya: Mazkur maqolada janubiy O'zbekistonning Ko'hitang dehqonchilik vohasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqotlar davomida miloddan avvalgi II ming yillikka oid Sopolli madaniyatiga tegishli 59 ta yodgorlik

migratsiya, Janubiy O'zbekiston.

aniqlanib, ularning tabiiy-geografik joylashuviga asoslangan mikrooazislar – Maydon, Zarabog', Qorabog', Pashxurt, G'oz, Chorbog' va Kampurtepa bo'yicha guruhlab o'rganildi. Har bir mikrooazisdagi yodgorliklarning joylashuvi, sopol buyumlar morfologiyasi va stratigrafik qatlamlari o'rganilib, qadimgi dehqonchilik infratuzilmalari, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va madaniy aloqalar haqida dastlabki ilmiy xulosalar berildi. Ushbu maqola bronza davri jamoalarining joylashuvi, migratsiyasi va xo'jalik faoliyatini kompleks tahlil qilishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

ИСТОРИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОХИТАНГСКОГО ОАЗИСА НА ОСНОВЕ ПАМЯТНИКОВ БРОНЗОВОГО ВЕКА

Улугбек Холтожиевич Шапулатов

Исследователь Термезского государственного университета

Термез, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Кохитангский оазис, культура Сополли, бронзовый век, археологические памятники, микрооазис, древнее земледелие, Амударья, стратиграфия, миграция, Южный Узбекистан.

Аннотация: В данной статье анализируются результаты археологических исследований, проведённых в земледельческом оазисе Кохитанг на юге Узбекистана. В ходе исследований было выявлено 59 памятников, относящихся к культуре Сополли II тысячелетия до нашей эры. Эти памятники были классифицированы по микрооазисам – Майдон, Зарабаг, Карабаг, Пашхурт, Гоз, Чарбаг и Кампуртепа – в зависимости от их природно-географического расположения. Исследованы размещение памятников в каждом микрооазисе, морфология керамики и стратиграфические слои. На основе полученных данных сделаны первые научные выводы о древней земледельческой инфраструктуре, социально-экономических системах и культурных связях. Статья представляет собой важный источник для комплексного анализа размещения, миграции и хозяйственной деятельности бронзово-вековых сообществ.

Kirish

Ko'hitang dehqonchilik vohasi janubiy O'zbekistonning tog' oldi mintaqalarida joylashib, tabiiy-iqlimiy sharoitlari, suv manbalariga yaqinligi va yerlarining unumdorligi bilan qadimdan dehqonchilik uchun qulay hudud hisoblangan. Ko'hitang tizmasi - Pomir-Olay tog' sistemasining janubi-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, u O'zbekiston va Turkmaniston chegarasini kesib o'tadi. Tizmaning eng baland nuqtasi - Ayribobo cho'qqisi 3139 metr balandlikda joylashgan bo'lib, u Boysuntog'ning janubiy davomi sifatida Amudaryo vodiysidan Sherobod daryosigacha taxminan 100 km ga cho'ziladi[1].

Ushbu hudud XX asrning 60-yillaridan boshlab ilmiy jamoalarning etnografik va arxeologik tadqiqotlari doirasida o'rganila boshlandi. Jumladan, B. Karmisheva tomonidan etnografik[2], E.V. Rtveladze, Z.A. Xakimov, T. Annaev, T.K. Mkrtıçev, S.B. Bolelov, D.Ya. Ilyasov, Kay Kaniut, A.Sh. Shaydullaev, N.D. Dvurechenskaya, V.V. Mokroborodov, Sh.B. Shaydullaev, L. Stancho, A. Augustinova, M. Mrva, O. Xamidovlar tomonidan esa arxeologik jihatdan keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan[3].

Keyingi yillarda olib borilgan izlanishlar natijasida Ko'hitang dehqonchilik vohasida miloddan avvalgi II ming yillikka oid Sopolli madaniyatiga mansub 59 ta yodgorlik aniqlanib, ro'yxatga olindi. Ushbu yodgorliklar ilk marotaba muallif tomonidan ularning tabiiy-geografik joylashuvi asosida mikrooazislar – Maydon, Zarabog', Qorabog', Pashxurt, G'oz, Chorbog' va Kampurtepa guruhlariga ajratildi. Bu yondashuv yodgorliklarning hududiy tuzilishi, ularning suv manbalari va xo'jalik tizimlari bilan o'zaro aloqasini tahlil qilish, shuningdek, qadimgi dehqonchilik infratuzilmasini aniqlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Maydon mikrooazisi. Maydon mikrooazisida joylashgan dastlabki yodgorlik Maydon qo'rg'onidir. Bu yodgorlik Maydonsoyining chap qirg'og'ida balandlikda joylashgan. Yodgorlik joylashgan hudud relyefi atrof yaxshi ko'rinadigan morfologik xususiyatlar mavjud, masalan, bir nechta tepaliklar va sun'iy tekis platformalar ustida joylashgan. Bu yodgorlikda haqida tadqiqotchilar antik davrining oxiridan so'ngi o'rta asrlargacha doimiy ravishda insoniyat yashab kelgan[4]. Bu yerda bronza davriga oid faqat bitta sopol parcha topilgan.

Bu hududda joylashgan keyingi yodgorlik vohaning janubi-g'arbiy chekkasida joylashgan Kalapushtepa hisoblanadi. 2017 yilda O'zbekiston-Chexiya qo'shma arxeologik ekspiditsiyasi tadqiqotlarida taxminan 20×30 m tepalik shaklidagi bu joydan bronza davriga oid sopol parchalari topilgan[5].

2017 yildagi dala qidiruv tadqiqotlari davomida Maydon qishlog'ining g'arbiy tomonida Sopolli madaniyatiga tegishli Yo'ltepa yodgorligi ham aniqlangan. Yodgorlikning umumiy

maydoni 3 gektardan ko'proq bo'lib, u tabiiy buloq yonida joylashgan, Yo'ltepa yodgorligidan topilgan sopollar Jarqo'ton davri tegishli ekanligi ta'kidlangan[6].

Pashxurt mikrooazisi. 1960 yillardan boshlab Surxondaryo viloyati Ko'hitang vohasi Poshxurt qishlog'i atrofida arxeologlar tomonidan bir necha antik davr yodgorliklari o'rganilib kelinmoqda[7].

2006 yilning yozida Toshkent San'atshunoslik institutining Tohariston ekspeditsiyasi tadqiqotchisi S. Bolelov hudud bilan yaqindan tanishish ishlarini olib boradi. Natijada Dobilqo'rg'on yodgorligidan uncha uzoq bo'lgamagan yangi yodgorlikni uchratib stratigrafik tadqiqotlar o'tkazgan. Topilmalar yodgorlikning bronza davriga tegishli ekanligini tasdiqladi[8]. Bu hududda topilgan datslabki bronza davri yodgorligi Tillabuloq hisoblanadi. Yodgorlikda O'zR FA San'atshunoslik instituti, Termiz davlat universiteti va Germaniyaning Myunxen universiteti o'rtasidagi uch tomonlama ilmiy shartnoma asosida arxeologik tadqiqotlar o'tkazilib, 2007-2012 yillar mobaynida to'liq ochib o'rganilgan[9].

Tillabuloq xronologik jihatdan Janubiy Turkmanistonning Namozgoh VI madaniyati turkumiga kiruvchi so'nggi bronza davri yodgorligi bo'lib, mil.avv. 1950-1800 yillar bilan davrlashtirilgan[10]. Yodgorlik Marg'iyona – Shimoliy Baqtriya yo'nalishida aholi migratsiyasi bo'lganligini yana bir bor tasdiqlaydi[11].

Poshxurt qishlog'ida olib borilgan tadqiqotlar natijasida hozirgi aholi yashaydigan hududlarning 3 qismidan (PAS 00, PAS 01, PAS 02/05) bronza davriga oid sopollar topilgan. Sopollar tarqalish hududi Dabulsoyning chap qirg'og'i bo'ylab tarqalgan. Topilgan topilmalarga qarab bu nuqta qishloq Ichida qolib ketgan bronza davri qabristoni bo'lishi mumkinligi tahmin qilinadi[12].

Poshxurt va G'oz qishloqlari orasida Gandabuloq nomli buloq joylashgan. Buloq atrofida olib borilgan arxeologik qidiruv ihlari natijasida bir nechta Gandabuloq nomidagi yodgorliklar ro'yxatga olingan. Gandabuloq I-IV yodgorliklarini tadqiqotchilar o'rta asrlarga oid ekanligini ta'kidlashgan. Gandabuloq II-III yodgorliklarining xronologiyasi maalasi ochiqlicha qoldirilgan[13]. Bu yodgorlikda 2021 yilda olib borilgan arxeologik nazorat ishlarida bronza davri sopollarining topilishi bu buloqning insoniyat tomonidan o'zlashtirish davrini ko'rsatib beradi.

Bundan shaqari Germaniyaning Myunxen universiteti arxeologlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda 8 ta nomlari nomalum bo'lgan tepaliklardan bronza davri sopollari topilganligini qayd etib o'tishadi[14].

G'oz mikraoazisi. Bu hududda dastlabki arxeologik tadqiqotlar 1971 yilda O'.I. Islomov rahbarligida O'zSSR FA Tarix va arxeologiya instituti arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan olib

boriladi. Natijada Qattiqamish va Go'z hududidan uchta nuqtadan chaqmoqtosh qurollari va uchrundilarni topadi[15]. Shuningdek E.V. Rtveladze[16], S.B. Bolelov[17], N.D. Dvurechenskaya, V. Mokroborodov[18], K. Kaniut[19], A.Shaydulayev, J. Lhuillier[20], Sh.B. Shaydullayev, O. Hamidov, A Avgustina, L. Stancholar[21] arxeologik tadqiqot ishlarini olib boradilar. Bu xududda olib borilgan tadqiqotlar bronza davri yodgorliklarining davriy chegasini so'ngi bronza davrining ilk bosqichi ekanligini ko'rsatadi.

G'ozqal'a yodgorligi. Yodgorlik G'oz qishlog'ining shimoliy qismida, 37.62922° N 66.74642 E geografik koordinatda joylashgan. Yodgorlik joylashgan joyni mahalliy aholi Choqmoqurdi yoki Chaqmoqtosh deb ataydi. Yodgorlik shimoliy-janubiy chiziq bo'ylab cho'zilgan toshloq, biroz qumli tepalik ustida joylashgan. Yodgorlikning 250-300 metr sharqida Dobulsoyning quyi oqimi oqib o'tadi. N. D. Dvurechenskaya, O. V. Dvurechenskiy, V. V. Mokroborodov, I. V. Rukavishnikova, D. V. Rukavishnikovlar tadqiqotida G'ozqal'a yodgorligidan topilgan sopollariga qarab bu yodgorlik so'ngi bronza davrining ilk bosqichiga oid ekanligi ta'kidlanadi[22].

G'ozdahna I yodgorligi. Yodgorlik Qorachigil tog'ining etagida, Ulanbuloqsoyning boshlanish qismi chap qirg'og'ida, N 37,62170 E 66,74725° koordinatalada joylashgan. Yodgorlik aylana shaklda, tashqi devorlari toshdan qurilgan. Yodgorlik 2017 yilda O'zbekiston-Chexiya qo'shma ekspeditsiyasi tomonidan aniqlangan. Bu yerdan topilgan topilmalarga qarab tadqiqotchilar yodgorlikni so'ngi bronza davri ekanligini qayd etganlar[23].

G'ozdahna II yodgorligi. Yodgorlik kichik xajmli bo'lib, G'ozdahna I yodgorligining g'arbiy qismida 20 metr uzoqlikda, N 37.62178° E66.74696° koordinatalada joylashgan hamda nazorat punktitining bir qismi xisoblanadi. Qurilishda tosh xomashyosi asosiy o'rin egallagan, aylana shaklda bo'lib, nazorat minonasi ko'rinishida.

Qirqqiz yodgorligi. G'oz qishlog'ining shimoliy-sharqiy qismida shu nomdagi qabr va ziyoratgoh joylashgan. Bu yerda 2013 yilda O'zbekiston-Rossiya qo'shma arxeologik ekspeditsiya tepalik va uning yon atrofidagi sopollarni ko'pchilik qismini milodiy III-IV asrlar bilan davrlashtiradi[24]. Keyingi tadqiqotlar bu yodgorlikdab bronza davri sapollari aniqlanadi. Nemis Kay Kaniut tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yodgorlikni Qirgiz III nomi bilan ro'yxatga olib (N 37°37'40.19 E 66°44'33.11), bu yerdan topilgan sopollar G'ozqal'a va Tillabuloq yodgorliklari sopollariga o'xshash ekanligini aytib o'tadi hamda bu hududda bronza davri qabristoni borligini taxmin qiladi[25].

Qizilboy yodgorliklari. Bu hududda yana bir bronza jamoalari tomonidan egallangan yana bir hudud G'oz qishlog'idan 3,6-4 km. g'arbda, Oqtosh va Choqbog' qishloqlariga boruvchi yo'lining o'ng tomonida joylashgan. Bu hudud mahalliy aholi tomonidan Qizilboy nomi bilan

atalib, bu yerda ko'plab devorlar, tosh inshootlari, tepaliklar va sun'iy platformalar ko'zga tashlanib turadi. Bu hududda Qizilboy nomi bilan uchta yodgorlik (Qizilboy, Qizilboy 1/2, Qizilboy 3) ro'yxatga olingan bo'lib, topilgan sopol namunalari va topilmalarga ko'ra tadqiqotchilar bu hudud bronza davrida o'zlashtirilganligini qayd etadilar[26].

Qushilish yodgorligi. Yodgorlik G'ozqal'a yodgorligining janubiy qismida, Dobulsoy va Shurbuloqsoyning qo'shilish qismida, N37,62556 E66,74598 koordinatada joylashgan. Yodgorlikning janubiy qismidan Ulombuloqsoy boshlanadi. Yodgorlik O'zbekiston-Chexiya va O'zbekiston-Germaniya qo'shma arxeologik ekspiditsiyasi tomonidan ro'yxatga olinadi va bronza davri bilan xronologiyalashtiriladi.

Qamishtepa yodgorligi. Yodgorlik G'oz qishlog'idan 2 km shimolda, Dobulsoydan 320 metr g'arbda, Qorachigil tog' tizmasidan 1,2 km shimolda (N 37.641917, E 66.751756) joylashgan. Yodgorlik 2021 yilda mazkur maqola muallifi hamda O'zbekiston milliy universiteti arxeologi A. Shaydullayev bilan birgalikda ro'yxatga olingan. Yodgorlikning yer yuzasidan bir nechta sopollar terib olinadi. Sopollar ichida Yaz I davri sopollari bilan bronza davri sopollari ham uchraydi. Yodgorlik aylana shaklida tepalikda joylashgan, tepalikning deimetri 36x30 metrni tashkil qiladi.

Ko'lkoriz (bronza davri qabristoni) yodgorligi. Yodgorlik G'oz qishlog'idan 5 km g'arbda, mahalliy aholi tomonidan Ko'lkoriz deb ataladigan koriz yonida (N 37°38'7.00 E66°41'17.91) joylashgan. Yodgorlik 2021 yilda mazkur maqola muallifi hamda O'zbekiston milliy universiteti arxeologi A. Shaydullayev bilan birgalikda ro'yxatga olingan. Yodgorlikning yer yuzasidan bir nechta sopollar terib olinadi. Sopollar orasida bronza davri sopollari ham uchradi. Sh. Shaydullayev tomonidan bu yodgorlikning topilmalari kamligi va tepalikning joylashuv geografiasiga asoslanib bronza davri qabristoni bo'lishi mumkinligi taxmin qilingan.

G'oz mikrooazisida arxeologik qidiruv ishlarini olib borgan O'zbekiston-Chexiya va O'zbekiston-Germaniya qo'shma arxeologik ekspiditsiyasi tadqiqotchilari yana 5 ta bronza davri sopollari uchragan nomlari keltirilmagan tepaliklar va nuqtalarni ko'rsatib o'tishgan[27]. Xulosa qilib aytganda yodgorliklar soni va topilgan topilmalarga asoslanib bu mikrooazis bronza davrida o'zlashtirilgan bo'lib, Sopolli madaniyatining ilk bosqichiga oiddir. Keyingi tadqiqotlarda Sopolli madaniyati jamoalarining migratsiyasi masalasini ham qayta ko'rib chiqish kerak degan xulosaga kelish mumkin.

Chorbog' mikrooazisi. Bu qadimgi dehqonchilik hududiga G'oz qishlog'idan janubiy-g'arbida 15-20 km uzoqlikda joylashgan shu nomdagi zamonaviy qishloq nomidan kelib chiqib nom berildi.

O'tgan asrning 90-yillaridan - 2017-yilgacha Chorbog' qishlog'i va uning atrofi Davlat chegara mintaqasiga tutash hudud bo'lgani uchun etnografik va arxeologik dala tadqiqot ishlarini olib borishning imkoni bo'lmagan. Shunday bo'lsada, Ko'hitangtog' yon bag'ri qishloqlari XX asrning 60- yillaridan boshlab B.Karmisheva tomonidan etnografik[28], E.V. Rtveladze, Z.A. Xakimov, T.Annaev, T.K.Mkrtichev, S.B. Bolelov, D.Ya. Ilyasov, Kay Kaniut, A.Sh. Shaydullaev, N.D.Dvurechenskaya va V.V. Mokroborodov, Sh.B.Shaydullaev, L.Stancho, A.Augustinova, M. Mrvalar tomonidan arxeologik jihatdan o'rganilgan[29].

2021-yili O'zbekiston Milliy universiteti va Termiz Davlat universiteti arxeologlari hududda qo'shma arxeologik dala qidiruv va qazuv tadqiqot ishlarini olib bordi. Natijada Chorbog' qishlog'i atrofi va dehqonchilik hududlari bronza davridanoq o'zlashtirilganligi aniqlangan. Tadqiqot davomida olib borilgan arxeologik qidiruv ishlari natijasida bu hududda bir nechta bronza davri yodgorlilari ro'yxatga olindi. Shulardan biri Kattabuloq yodgorligidir. Kattabuloq yodgorligi geografik koordinatalar bo'yicha N 37°33.287, E 066°34.212 nuqtalari kesishmasida, dengiz sathidan 555 metr balandlikda joylashgan. Yodgorlik 2020 yilda Sh. Shaydullayev tomonidan topilgan. Yodgorlik ishlab chiqarishga asoslangan yodgorlik bo'lib, Sopolli madaniyatining ilk bosqichiga tegishli xisoblanadi.

Toshmaydon I yodgorligi. 2021 yilgi Kattabuloq yodgorligida olib borilgan arxeologik qazishma ishlari davomida aniqlangan. Toshmaydon I yodgorligi Kattabuloq yodgorligidan 1.5 km shimolda, Xo'jaikon tuz konining sharqiy qismida. Toxirshox ota ziyoratgohidan 900 m janubda joylashgan. geeografik koordinata kesishma nuqtasi N 37°34'5.09 N 66°34'5.42, dengiz sathidan 596 metr.

Yodgorlik shakli Kattabuloq yodgorligidan tubdan farq qiladi. Yodgorlik hajmi 0,36 ga, eniligi 50 sm lik tashqi devori toshdan qurilgan bo'lib, kvadrat shaklda, tashqi devorning shimoliy-sharqiy qismida 2x2 m o'lchamdagi inshoot izlari ham saqlanib qolgan. Tashqi devorning ichki qismida 40ga yaqin tosh uyumlari mavjud. Markaziy qismidan Toxirshox ota bulog'ining suvlaridan foydalanish maqadida qazilgan kichik ariq janubga qarab kesib o'tgan.

Toshmaybon II yodgorligi. Yodgorlik Toshnaydon I yodgorligining harqiy qismida, 10 metr uzoqlikda joylashgan. Bu ikki yodgorlik bir biriga o'xshash xisoblanib, ikkinchiining farqi tashi devorlari ichki qismida tosh uyumlar kuzatilmaydi.

Chorbog' mikrooazisining dehqon jamoalari tomonidan o'zlashtirilishi topilgan yodgorliklardan kelib chiqib, Sopolli madaniyati davri bilan teng degan xulosa qilish mumkun. Bu yodgorlik sohiblari bronza davri uchun muxim xisoblangan tuz va gips qayta ishlay olib, Sopolli madaniyatiga tegihli bohqa yodgorliklarni ta'minlab turganlar.

Zarabog' mikraoazisi. Zarabog' qishlog'i XX asrning 60-yillaridan B. Karmisheva tomonidan etnografik[30], E.V. Rtveladze, Z.A. Xakimov, T.K. Mkrtıchev, S.B. Bolelov, D.Ya. Ilyasov, Kay Kanyut, A.Sh. Shaydullaev, N.D. Dvurechenskaya va V.V. Mokroborodovlar arxeologik jihatdan tadqiqotlar olib borgan[31].

O'zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi tadqiqotlari davomida Ko'hitangtog' yon bag'rida joylashgan qishloqlarning arxeologik dinamikasini o'rganish ishlari olib borildi[32].

Dehqonchilik voha hududida olib borilgan kuzatuvlar davomida dala maydonlarida turli davrlarga oid sopollar aniqlandi.

Zarabog' qishlog'i va dehqonchiligi hududlari bronza davrida o'zlashtirilgan bo'lib, bu hududda aniqlangan Tulkitepa yodgorligi Sopolli madaniyatiga tegishli. Yodgorlikning umumiy maydoni 1,5 gektarni tashkil etadi. Yodgorlik dengiz sathidan 951 metr balankikda, 37°45'04"N 66°44'57"E geografik koordinatada joylashgan. O'zbekiston-Chexiya qo'shma arxeologik ekspeditsiyasi tadqiqotchilari yodgorlik ustida terib olingan kulolchilik ashyolari asosida Jarqo'ton davriga tegishli ekanligi qayd etganlar[33].

Zarabog' qishlog'i hududida joylashgan, Sopolli madaniyatiga tegishli ikkinchi yodgorlik Bobolangar deb ataladi. Machildi mavsumiy daryosining o'ng qirg'og'idan 120 metr uzoqlikda, shu nomdagi buloqdan 15 metr balandlikda, baland tabiiy tepalik ustida bunyod etilgan bo'lib, yodgorlikning umumiy maydoni 1,3 gektarni tashkil etadi.

O'zbekiston-Chexiya arxeologik ekspeditsiyasi bu yerda kichik stratigrafik tadqiqotlar olib bordi va yodgorlik 0,80-1 metr qalinlikdagi, jarqo'ton davriga oid madaniy qatlamlardan iborat ekanligini aniqladi[34]. Shuni alohida qayd etish joizki, yodgorlik XVI asrda qabristonga aylantirilgan va bronza davri madaniy qatlamlariga juda katta talofot yetkazilgan[35].

Qo'shtepa yodgorliklari. Yodgorlik Zarabog' qishlog'idan 1,2 km janubda, Pashxo'rt-Zarabog'avtomobil yo'lining bo'yida joylashgan, geografik koordinatasi 37°44'43"N 66°45'47"E nuqtada, dengiz athidan 914 metr balandlikda. 2015 yilda O'zbekiston-Chexiya arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan ro'yxatga olingan[36]. Pashxo'rt-Zarabog'avtomobil yo'li yodgorlikni ikkiga ajratib tashlaganligi sababli Qo'shtepa va Qo'shtepa 2 nomlari bilan shartli ravishda atadik. Bu yerdan topilgan sopol parchalariga asoslanib bu yodgorlik ham Sopolli madaniyatiga tegishli ekanligi qayid etiladi.

Sopolli madaniyatiga oid sopol parchalari Zarabog' hududdidan yana 11 ta nuqdan (POL 025, POL 043, POL 130, Tepa (O.2, Vayorona/ Erona), Nomsiz (POL_108), POL_068, POL_107, POL_113, POL_125, POL_134, POL_3) aniqlangan[37]. Bu hududda yana bir bor arxeologi nazorat ishlarini olib borish maqadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Qorabog' mikrooazisi. Bu tadqiq qilinayotgan hudud hozirda shu nomdagi qishloq hududdi xisoblanib, Pashxurt qishqog'idan shimol tomonda 7,5 km uzoqlikda joylashgan (koordinatalari: N 37°46'20.45 E 66°48'36.38). Mikrooazis Qorabog'soy deb nomlangan mavsumiy daryoning ikki qirg'og'i bo'ylab himoldan janubga 3,3 km uzunlikda joylashgan. Qorabog' qishlog'ida dastlabki arxeologik tadqiqotlar E.V. Rtveladze, Z.A. Xakimov, Z.A. Arshavskaya, A. Danieliova, L. Stancho, Sh. Shaydullayev, A. Shaydullayev, S. Stritelar tomonidan olib boriladi[38]. Vohada amalda oshirilgan dala qidiruv ishlarida 7 ta hududdan Sopolli madaniyatiga tegishli spool parchalari aniqlanadi.

Xushvaqttepa yodgorligi. Bu yodgorlik dastab 1974-yilda E.V. Rtveladze tomonidan ro'yxatga olinadi. Qorabog' qishlog'ining markazida, N 37°46'17.12 E 66°48'33.71 geografik koordinatalar kesishgan nuqtada, dedgiz sathidan 850 metr balandlikda joylashgan. 9x13 o'lchamli aylana shakldagi kichik tabiiy tepalik ustida bino qilingan bo'lib, balandligi 3,5 metrni tashkil qiladi. Mahalliy aholi tomonidan yodgorlikning tuprog'i olib ketilganligi uchun zarar yetkazilgan. Dastlabki tadqiqotchilar bu yerdan topilgan sopol parchalariga asoslanib Kushon davridan o'rta asrlargacha yodgorlikning yoshini belgilashgan[39]. 2016 yilda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida yodgorlik va uning atrofidan bronza davri sopollarining topilishi manzilgohning Yoshi Sopolli madaniyati yodgorliklari bilan bir davrga tegishli ekanligi tasdiqladani[40].

Qo'rg'ontepa yodgorligi. Yodgorlik Qorabog'soyning chap tomonida, N 37.77069 E 66.80577 geografik koordinatalar kesishgan nuqtada, dengiz sathidan 858 metr balandlikda joylashgan. Hozirgi kunda mahalliy aholi tomonidan qabriston sifatida foydalaniladi. Yodgorlik oval shaklda bo'lib, uning o'lchami 30x60 metrni tashkil etadi. Yodgorlik dastlab Z.A. Arshavskaya, E.V. Rtveladze, Z.A. Xakimovlar tomonidan ro'yxatga olinadi hamda yodgorlik ilk o'rta asrlar bilan sanalashtiriladi[41]. 2016 yilga olib borilgan izlanishlar natijasida yodgorlikdan brooza davri sopol parchalarining topilishi bu yodgorlikning davrini ham qadimiylashtiriladi[42].

Qorabog' qishlog'i hududida olib borilgan tadqiqotlar natijasida 5 ta nuqtadan topilgan sopollar Ichida Sopolli madaniyatiga oid sopollarning uchrashi bu vohaning bronza davrida o'zlashtirilgan degan xulosaga kelsak bo'ladi. Bu nuqtalarda yodlik alomatlari sezilmasada, topilma topilgan hudud sifatida ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Kampurtepa mikrooazisi. Vohada shu nomdagi qishloq joylashgan. Qishloq Ko'hitang tog'idan boshlanuvchi Kampirtepa soyining ikkala qirg'og'i bo'ylab 4,5 km uzunlikda, qishloq markazi Pashxurt qishlog'idan 11,2 km uzoqlikda, dengiz sathidan 1206 metr balandlikda joylashgan. Bu qishloqda dastlabki arxeologik tadqiqotlar 1964 yilda G.A. Pugachenkova

tomonidan amalga oshiriladi[43]. Keyingi davrlarda bu hududda E.V. Rtveladze, Z.A. Xakimov, Z.A. Arshavskaya, A. Augustinova, L. Stancho, M. Mrva, Sh. Shaydullayevlar tomonidan tadqiqotlar olib borildi[44].

Bu xududda olib borilgan arxeologik qidiruv tadqiqotlari natijasida Bronza davriga oid uchta hudud aniqlanadi.

Eshimtepa-Eishintepa yodgorligi. Yodgorlik Kampurtepa soyining chap qirg'og'idan 100 metr uzoqlikda, N 37.78364 E 66.67631 geografik koordinatalar kesishgan nuqtada, dengiz sathidan 1123 metr balandlikda joylashgan. Yodgorlik o'lchami 70x45 metr bo'lib, balandligi 6 metr bo'lgan platforma ustiga bunyod etilgan. Yodgorlik ustida tosh terilgan bir nechta qabrlarni kuzatish mumkin. Yodgorlik yuzasidan topilgan sopollar tadqiq qilinganda bu manzilgohni bir nechta davrga tegishli ekanligini ko'rsatadi. Sopollar ichida bronza davriga tegishlisi bo'lganligi bois, bu yodgorlik dastlab bronza jamoalari tomonidan o'zlashtirilganligidan dalolat beradi[45].

Kampirtepa ota yodgorligi. Yodgorlik Eshimtepadan 50 metr shimolda, N37.78501 E66.67701 geografik koordinatada, dengiz sathidan 1242 metr balandlikda joylashgan. Bu nuqtada hozirgi vaqtda mahalliy aholi qabriston sifatida foydalanadi. Yodgorlikning yuza qismidan turli davrlarga oid sopollar bilan bir qatorda bronza davriga tegishlisi ham topilgan.

Yana bir hududdan bronza davri sopoli uchrashi (POL_202) Kampurtepa qishg'ining xranologik yoshini ko'rsatib beradi[46].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Ko'hitang dehqonchilik vohasining bronza davriga oid arxeologik manzarasini sistematik o'rganish ushbu hududda qadimgi dehqonchilik jamoalari faoliyat yuritganligini ko'rsatadi. O'tkazilgan dala tadqiqotlari natijasida 59 ta Sopolli madaniyatiga oid yodgorlik aniqlanib, ularning tabiiy-geografik joylashuviga asoslanib Maydon, Zarabog', Qorabog', Pashxurt, G'oz, Chorbog' va Kampurtepa mikrooazislariga guruhlab tahlil qilindi.

Sopolli madaniyatining Ko'hitang vohasidagi tarqalishi, yodgorliklar soni va ularning stratigrafik tarkibi ushbu madaniyatning janubiy O'zbekiston hududlarida mustahkam ildiz otganligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, topilgan sopol parchalarning morfologik va texnologik xususiyatlari ushbu madaniyatning boshqa mintaqalar bilan aloqada bo'lganligini ko'rsatib, migratsiya va madaniy almashinuv jarayonlarini tahlil qilish uchun yangi yo'nalishlar ochib beradi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda har bir mikrooazisdagi yodgorliklarning funksional tahlilini chuqurlashtirish, suv infratuzilmalari va qishloq xo'jaligi tizimlari bilan bog'liq arxeologik ob'ektlarni aniqlash, shuningdek Sopolli madaniyati jamoalarining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasini rekonstruksiya qilish dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана (По этнографическим данным). – М., 1976.
3. Ртвеладзе Э.В., Хакимов З.А. Маршрутные исследования памятников Северной Бактрии // Из истории античной культуры Узбекистана. – Т., 1973. – С. 10–34; Ртвеладзе Э.В. Разведочное изучение Бактрийских памятников на юге Узбекистана // Древняя Бактрия. – Л., 1974. – С. 74–85; Мкртычев Т.К., Болелов С.Б., Ильясов Д.Я. Исследования на юге Узбекистана // АО 2004 года. – М., 2005. – С. 524–528; Мокробородов В.В. Керамика эпохи бронзы из кишлака Пашхурт // АИУ - 2004-2005 годы. Выпуск 5. – Т., 2006. – С. 160–164; Kaniuth K., Gruber M., Kurmangaliev A., Sachs F., Sajdullaev A., Makki M., Biro P. Tilla Bulak 2009 - Vorbericht zur dritten Kampagne // AMIT. Band 42. – Berlin, 2010. – P. 129–163; Двуреченская Н.Д., Двуреченский О.В., Мокробородов В.В., Рукавишникова И.В., Рукавишников Д.В. Маршрутные исследования на юге Узбекистана в 2013 году // КСИА, № 236. 2014. – С. 69–82; Augustinova A., Stanco L., Shaydullaev Sh., Mrva M. Archaeological Survey in the Zarabag Micro Oasis (South Uzbekistan), Preliminary Report on the Season 2015 // Studia Hercynia XIX/1-2, 2015. – P. 262–281.
4. Ртвеладзе Э.В., Хакимов З.А. Маршрутные исследования памятников Северной Бактрии // Из истории античной культуры Узбекистана. Т., 1973. С. 22-23; Ртвеладзе Э.В. Разведочное изучение Бактрийских памятников на юге Узбекистана // Древняя Бактрия. Ленинград, 1974. С. 77; Stride S. Geographie archeologique de la province du Surkhan Darya. P., 2004. Vol. I. p.164;
5. Augustinová Anna, Ladislav Stančo, Ladislav Damašek, Odiljon Khamidov, Tobiáš Kolmačka, Shapulat Shaydullaev. Archaeological Survey in the Oases of Maydon and Goz in the Piedmont of the Kugitang Mountains (South Uzbekistan) – Preliminary report for season 2017. STUDIA HERCYNIA XXI/2, 139–159
6. Хамидов О.А. Шимолий Бақтриянинг Кучук I даврига оид янги ёдгорликлари. Фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация матни. Тошкент, 2020.
7. Ртвеладзе Э.В., Хакимов З.А. Маршрутные исследования памятников Северной Бактрии // Из истории античной культуры Узбекистана. Ташкент, 1973, с. 10–34.
8. Болелов С.Б., Ильясов Дж.Я. Археологические исследования в Пашхуртской котловине // Археологические исследования в Узбекистане – 2004–2005 годы. Выпуск 5. Ташкент, 2006, с. 89–94; Мкртычев Т.К., Болелов С.Б., Ильясов Д.Я. Исследования на юге

Узбекистана // Археологические открытия 2004 года. Москва, 2005, с. 524–528.; Мокробородов В.В., Керамика эпохи бронзы из кишлака Пашхурт// Археологические исследования в Узбекистане – 2004–2005 годы. Выпуск 5. Ташкент, 2006, с. 160-164.

9. Kaniuth K. “Tilla Bulak – 2008 Vorbericht zur dritten Kampagne” // AMIT. Band 41. - Berlin. 2010.P.75; Kaniuth K. Long distance imports in the Bronze Age of Southern Central Asia. Recent finds and their implications for chronology and trade // AMIT. Band 42. 2010. P. 3–22; Kaniuth K., Gruber M., Kurbangaliev A., Sachs F., Sajdullaev A., Makki M., Biro P. “Tilla Bulak – 2009 Vorbericht zur dritten Kampagne” // AMIT. Band 42. - Berlin. 2010; Kaniuth K., Gruber M., Kurbangaliev A., Sollee A. “Tilla Bulak – 2010 Vorbericht uber die vierte Grabungskampagne” // AMIT. Band 43. - Berlin. 2011. P. 261; Шайдуллаев А.Ш. Сополли маданияти глиптикаси ва сфрагистикаси. Фалсафа фан. д-ри. ... дис. Тошкент, 2017. 53-бет.

10. Kaniuth K. “Tilla Bulak – 2008 Vorbericht zur dritten Kampagne” // AMIT. Band 41. – Berlin. 2010. P.75.

11. Хамидов О.А. Шимолий Бактриянинг Кучук I даврига оид янги ёдгорликлари. Фалсафа фан. д-ри. ... дис. Тошкент, 2017. 13-бет.

12. Kaniuth K., Gruber M., Kurmangaliev A., Sachs F., Sajdullaev A., Makki M., Biro P. Tilla Bulak 2009 -Vorbericht zur dritten Kampagne // Archalogische Mitteilungen aus Iran und Turan. Band 42. Berlin, 2010. 129-163; Мокробородов В.В. Керамика эпохи бронзы из кишлака Пашхурт // Археологические исследования в Узбекистане – 2004-2005 годы. Выпуск 5. Т., 2006. С. 160-164

13. Двуреченская Н.Д., Двуреченский О.В., Мокробородов В.В., Рукавишникова И.В., Рукавишников Д.В. Маршрутные исследования на юге Узбекистана в 2013 году // КСИА, № 236. 2014. – С. 78.

14. Kaniuth K. Life in the countryside. The rural archaeology of the Sapalli culture // Lyonnet, B., Dubova, N. A. (Eds.). The World of the Oxus Civilization (1st ed.). Routledge, 2020. – P. 462-469.

15. Исламов У.И. Новые материалы по каменному веку Южного Узбекистана // Древняя Бактрия. Л., 1974. Стр. 24-25.

16. Ртвеладзе Э. В. Историко-географический и археологический обзор Пашхурдской долины. Материалы Тохаристанской экспедиции. Выпуск 9. Поселение Дабилькурбан в Северной Бактрии. - Елец: ЕГУ им. И.А. Бунина, 2013. 5-31 с; Аршавская З.А., Ртвеладзе Э.В., Хакимов З.А. Средневековые памятники Сурхандарьи. Ташкент, 1982. Стр. 127.

17. Болелов С.Б., Ильясов Дж.Я. Археологические исследования в Пашхурдской котловине // Археологические исследования в Узбекистане 2004–2005 гг. Вып. 5. Ташкент, 2006.
18. Двуреченская Н. Д., Двуреченский О. В., Мокробородов В. В., Рукавишникова И. В., Рукавишников Д. В. Маршрутные исследования на юге Узбекистана в 2013 году. Краткие сообщения Института археологии. Вып. 236 / Ин-т археологии РАН; Гл. ред. Н. А. Макаров. – М.: Языки славянской культуры: Знак, 2014.стр-69-82.
19. Kaniuth K. Life in the countryside. The rural archaeology of the Sapalli culture // Lyonnet, B., Dubova, N. A. (Eds.). The World of the Oxus Civilization (1st ed.). Routledge, 2020. – P. 457 – 487.
20. Lhuillier J. A synthetic note about the phenomenon of the Central Asian Early Iron Age “painted ware cultures” (2nd – 1st millennium B.C.) // Bulletin of IICAS. Volume 13. 2011. P. 9-20.
21. Augustinova A., Stančo L., Damašek L., Khamidov O., Kolmačka T., Shaydullaev Sh. Archaeological Survey in the Oases of Maydon and Gozin the Piedmont of the Kugitang Mountains (SouthUzbekistan) – Preliminary report for season 2017 STUDIA HERCYNIA XXI/2, Prague, 2017
22. Двуреченская Н. Д., Двуреченский О. В., Мокробородов В. В., Рукавишникова И. В., Рукавишников Д. В. Маршрутные исследования на юге Узбекистана в 2013 году. Краткие сообщения Института археологии. Вып. 236 / Ин-т археологии РАН; Гл. ред. Н. А. Макаров. – М.: Языки славянской культуры: Знак, 2014.стр-78.
23. Augustinova A., Stančo L., Damašek L., Khamidov O., Kolmačka T., Shaydullaev Sh. Archaeological Survey in the Oases of Maydon and Gozin the Piedmont of the Kugitang Mountains (SouthUzbekistan) – Preliminary report for season 2017 STUDIA HERCYNIA XXI/2, Prague, 2017. P. 157; Kaniuth K. Life in the countryside. The rural archaeology of the Sapalli culture // Lyonnet, B., Dubova, N. A. (Eds.). The World of the Oxus Civilization (1st ed.). Routledge, 2020. – P. 468.
24. Двуреченская Н. Д., Двуреченский О. В., Мокробородов В. В., Рукавишникова И. В., Рукавишников Д. В. Маршрутные исследования на юге Узбекистана в 2013 году. Краткие сообщения Института археологии. Вып. 236 / Ин-т археологии РАН; Гл. ред. Н. А. Макаров. – М.: Языки славянской культуры: Знак, 2014.стр-76.
25. Kaniuth K. Life in the countryside. The rural archaeology of the Sapalli culture // Lyonnet, B., Dubova, N. A. (Eds.). The World of the Oxus Civilization (1st ed.). Routledge, 2020. – P. 470.

26. Augustinova A., Stančo L., Damašek L., Khamidov O., Kolmačka T., Shaydullaev Sh. Archaeological Survey in the Oases of Maydon and Gozin the Piedmont of the Kugitang Mountains (SouthUzbekistan) – Preliminary report for season 2017 *STUDIA HERCYNIA* XXI/2, Prague, 2017. P. 149-152; Kaniuth K. Life in the countryside. The rural archaeology of the Sapalli culture // Lyonnet, B., Dubova, N. A. (Eds.). *The World of the Oxus Civilization* (1st ed.). Routledge, 2020. – P. 462-469.

27. Augustinova A., Stančo L., Damašek L., Khamidov O., Kolmačka T., Shaydullaev Sh. Archaeological Survey in the Oases of Maydon and Gozin the Piedmont of the Kugitang Mountains (SouthUzbekistan) – Preliminary report for season 2017 *STUDIA HERCYNIA* XXI/2, Prague, 2017. P. 149-152; Kaniuth K. Life in the countryside. The rural archaeology of the Sapalli culture // Lyonnet, B., Dubova, N. A. (Eds.). *The World of the Oxus Civilization* (1st ed.). Routledge, 2020. – P. 462-469.

28. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана (По этнографическим данным). – М., 1976.

29. Ртвеладзе Э.В., Хакимов З.А. Маршрутные исследования памятников Северной Бактрии // Из истории античной культуры Узбекистана. – Т., 1973. – С. 10–34; Ртвеладзе Э.В. Разведочное изучение Бактрийских памятников на юге Узбекистана // Древняя Бактрия. – Л., 1974. – С. 74–85; Мкртычев Т.К., Болелов С.Б., Ильясов Д.Я. Исследования на юге Узбекистана // АО 2004 года. – М., 2005. – С. 524–528; Мокробородов В.В. Керамика эпохи бронзы из кишлака Пашхурт // АИУ - 2004-2005 годы. Выпуск 5. – Т., 2006. – С. 160–164; Kaniuth K., Gruber M., Kurmangaliev A., Sachs F., Sajdullaev A., Makki M., Biro P. Tilla Bulak 2009 - Vorbericht zur dritten Kampagne // *AMIT*. Band 42. – Berlin, 2010. – P. 129–163; Двуреченская Н.Д., Двуреченский О.В., Мокробородов В.В., Рукавишникова И.В., Рукавишников Д.В. Маршрутные исследования на юге Узбекистана в 2013 году // КСИА, № 236. 2014. – С. 69–82; Augustinova A., Stanco L., Shaydullaev Sh., Mrva M. Archaeological Survey in the Zarabag Micro Oasis (South Uzbekistan), Preliminary Report on the Season 2015 // *Studia Hercynia* XIX/1-2, 2015. – P. 262–281.

30. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана (По этнографическим данным). М., 1976.

31. Ртвеладзе Э.В., Хакимов З.А. Маршрутные исследования памятников Северной Бактрии // Из истории античной культуры Узбекистана. Т., 1973. С. 10–34; Ртвеладзе Э.В. Разведочное изучение Бактрийских памятников на юге Узбекистана // Древняя Бактрия. Л., 1974. С. 74–85; Мкртычев Т.К., Болелов С.Б., Ильясов Д.Я. Исследования на юге Узбекистана // Археологические открытия 2004 года. М., 2005. С. 524–528; Мокробородов

В.В. Керамика эпохи бронзы из кишлака Пашхурт // Археологические исследования в Узбекистане - 2004-2005 годы. Выпуск 5. Т., 2006. С. 160-164; Kaniuth K., Gruber M., Kurmangaliev A., Sachs F., Sajdullaev A., Makki M., Biro P. Tilla Bulak 2009 -Vorbericht zur dritten Kampagne // Archäologische Mitteilungen aus Iran und Turan. Band 42. Berlin, 2010. 129-163; Двуреченская Н.Д., Двуреченский О.В., Мокробородов В.В., Рукавишникова И.В., Рукавишников Д.В. Маршрутные исследования на юге Узбекистана в 2013 году // КСИА, № 236.2014. С. 69–82.

32. Augustinova A., Stanco L., Shaydullaev Sh., Mrva M. Archaeological Survey in the Zarabag Micro Oasis (South Uzbekistan), Preliminary Report on the Season 2015 // Studia Hercynia XIX/1, 262–281.

33. Augustinova A., Stanco L., Shaydullaev Sh., Mrva M. Archaeological Survey in the Zarabag Micro Oasis (South Uzbekistan), Preliminary Report on the Season 2015 // Studia Hercynia XIX/1, 263.

34. Kysela, J., Augustinová A., Kinaston R. Preliminary Reports on the Excavations at Burgut Kurgan and Bobolangar in 2017. Studia Hercynia XXII/1. 2018. p. 158– 182.

35. Augustinova A., Stanco L., Shaydullaev Sh., Mrva M. Archaeological Survey in the Zarabag Micro Oasis (South Uzbekistan), Preliminary Report on the Season 2015 // Studia Hercynia XIX/1, 263.

36. Augustinova A., Stanco L., Shaydullaev Sh., Mrva M. Archaeological Survey in the Zarabag Micro Oasis (South Uzbekistan), Preliminary Report on the Season 2015 // Studia Hercynia XIX/1, 263.

37. Augustinova A., Stanco L., Shaydullaev Sh., Mrva M. Archaeological Survey in the Zarabag Micro Oasis (South Uzbekistan), Preliminary Report on the Season 2015 // Studia Hercynia XIX/1, 263; Augustinova A., Stančo L., Damašek L., Khamidov O., Kolmačka T., Shaydullaev Sh. Archaeological Survey in the Oases of Maydon and Gozin the Piedmont of the Kugitang Mountains (SouthUzbekistan) – Preliminary report for season 2017 STUDIA HERCYNIA XXI/2, Prague, 2017. P. 149-152; Kaniuth K. Life in the countryside. The rural archaeology of the Sapalli culture // Lyonnet, B., Dubova, N. A. (Eds.). The World of the Oxus Civilization (1st ed.). Routledge, 2020. – P. 462-469.

38. Ртвеладзе Э.В. Разведочное изучение Бактрийских памятников на юге Узбекистана // Древняя Бактрия. Ленинград, 1974. С. 74–85; Ртвеладзе Э.В., Хакимов З.А. Маршрутные исследования памятников Северной Бактрии // Из истории античной культуры Узбекистана. Т., 1973. С. 10–34; Stride S. Geographie archeologique de la province du Surkhan Darya. P., 2004. Vol. I-V; Аршавская З.А., Ртвеладзе Э.В., Хакимов З.А.

Средневековые памятники Сурхандарьи. Ташкент, 1982. С.152; Danielisová, A. - Stančo, L. -Shaydullaev, A. Preliminary report of archaeological survey in Sherabad District, South Uzbekistan in 2009. *Studia Hercynia* XIV, 2010. pp. 67-90, Pl. 28.

39. Ртвеладзе Э.В. Разведочное изучение Бактрийских памятников на юге Узбекистана // Древняя Бактрия. Ленинград, 1974. С. 74–85; Ртвеладзе Э.В., Хакимов З.А. Маршрутные исследования памятников Северной Бактрии // Из истории античной культуры Узбекистана. Т., 1973. С. 10–34;

40. Augustinova A., Stančo L., Damašek L., Mrva M., Shaydullayev Sh. Archaeological Survey of the Oases of Zarabag, Karabag and Kampyrtepa in the Piedmont of the Kugitang Mountains, South Uzbekistan – Preliminary Report for the Season 2016 // *Studia Hercynia*, XXI/1, 2017. P. 112.

41. Аршавская З.А., Ртвеладзе Э.В., Хакимов З.А. Средневековые памятники Сурхандарьи. Ташкент, 1982. С.152;

42. Augustinova A., Stančo L., Damašek L., Mrva M., Shaydullayev Sh. Archaeological Survey of the Oases of Zarabag, Karabag and Kampyrtepa in the Piedmont of the Kugitang Mountains, South Uzbekistan – Preliminary Report for the Season 2016 // *Studia Hercynia*, XXI/1, 2017. P. 114.

43. Пугаченкова Г.А. К стратиграфии монетных находок в Северной Бактрии // ВДИ. 1967. №3. С. 74-88.

44. Ртвеладзе Э.В. Разведочное изучение Бактрийских памятников на юге Узбекистана // Древняя Бактрия. Ленинград, 1974. С. 74–85; Ртвеладзе Э.В., Хакимов З.А. Маршрутные исследования памятников Северной Бактрии // Из истории античной культуры Узбекистана. Т., 1973. С. 10–34; Аршавская З.А., Ртвеладзе Э.В., Хакимов З.А. Средневековые памятники Сурхандарьи. Ташкент, 1982. С.152; Augustinova A., Stančo L., Damašek L., Mrva M., Shaydullayev Sh. Archaeological Survey of the Oases of Zarabag, Karabag and Kampyrtepa in the Piedmont of the Kugitang Mountains, South Uzbekistan – Preliminary Report for the Season 2016 // *Studia Hercynia*, XXI/1, 2017. P. 104-188; Augustinová A. “Settlement changes in the oases–Non-destructive survey in the eastern Kugitang Piedmont (Uzbekistan)”. Проблемы истории, археологии и этнологии Центральной Азии. Сборник статей. Ташкент. 2018 г. С. 35-48.

45. Augustinova A., Stančo L., Damašek L., Mrva M., Shaydullayev Sh. Archaeological Survey of the Oases of Zarabag, Karabag and Kampyrtepa in the Piedmont of the Kugitang Mountains, South Uzbekistan – Preliminary Report for the Season 2016 // *Studia Hercynia*, XXI/1, 2017. P. 123;

46. Augustinova A., Stančo L., Damašek L., Mrva M., Shaydullayev Sh. Archaeological Survey of the Oases of Zarabag, Karabag and Kampyrtepa in the Piedmont of the Kugitang Mountains, South Uzbekistan – Preliminary Report for the Season 2016 // Studia Hercynia, XXI/1, 2017. P. 123;